

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 1- SINFI O'QUVCHILARI SAVODXONLIGINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Nasriddinova Nasiba Alimjonovna

University of Innovation Technology

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim “ kafedrası P.f.f.d (PhD) v.b. dotsent.

Yaxshibayeva Shaxzoda Ulu‘bek qizi.

University of Innovatsion Technology

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19798739>

Annotatsiya. 1-sinf o‘quvchilari savodxonligini didaktik o‘yinlar orqali shakllantirishning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va kutilayotgan natijalarini tahlil qiladi. Tadqiqot erta yoshdagi bolalarda o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning samaradorligini o‘rganib, ularning motivatsiyani oshirish va o‘qishdagi tushkunlikni kamaytirishdagi rolini yoritadi. Xalqaro tajribalar, xususan, fonetik o‘qitish va “O‘qish ilmi” tamoyillarini O‘zbekiston ta‘limiga moslashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Savodxonlik, didaktik o‘yinlar, boshlang‘ich sinf, fonetik tushuncha, o‘qish ilmi, motivatsiya, o‘quv jarayoni.

Аннотация. Данная глава систематически анализирует теоретические основы, методологические подходы и ожидаемые результаты формирования грамотности у учащихся 1-х классов общеобразовательных школ посредством дидактических игр.

Исследование изучает эффективность дидактических игр в развитии ранних навыков чтения, подчеркивая их роль в повышении мотивации учащихся и снижении разочарования в процессе обучения. Обсуждаются вопросы адаптации международного опыта и научно обоснованных методологий, в частности фонетического обучения и принципов “Науки чтения”, к образовательному контексту Узбекистана.

Ключевые слова: Грамотность, дидактические игры, начальный класс, фонетическое понимание, наука чтения, мотивация, учебный процесс

Abstract. This chapter systematically analyzes the theoretical underpinnings, methodological approaches, and anticipated outcomes of fostering literacy in first-grade students via didactic games. It investigates the efficacy of such games in developing early reading skills, highlighting their role in enhancing student motivation and mitigating learning frustration. The discussion integrates international best practices and evidence-based methodologies, including phonetic instruction and “Science of Reading” principles, adapting them to the educational context of Uzbekistan.

Keywords: Literacy, didactic games, primary class, phonetic awareness, science of reading, motivation, learning process.

Boshlang‘ich sinflarda savodxonlik 1-sinf o‘quvchilari uchun, keyingi o‘quv faoliyatining asosi bo‘lib, o‘qishga bo‘lgan munosabat va ko‘nikmalarini egallash sur‘ati butun ta‘lim tizimini belgilaydi. An‘anaviy usullar zerikish va motivatsiya yo‘qligini keltirib chiqarishi, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Shu bois, didaktik o‘yinlar savodxonlikni shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faol jalb etib, motivatsiyani oshiradi va o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi didaktik o'yinlarning 1-sinf o'quvchilari savodxonligini shakllantirishdagi samaradorligini nazariy asoslash va ularni O'zbekiston ta'lim tizimi kontekstida joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ilmiy yangilik xalqaro "O'qish ilmi" tamoyillari va didaktik o'yinlarning eng yaxshi amaliyotlarini O'zbekistonning milliy ta'lim kontekstiga moslashtirish orqali o'qitish metodikasiga innovatsion yondashuvlarni taklif etishdan iborat.

Didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning hususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan, bilim berishni yengillashtiruvchi hamda ko'rgazmalilikni ta'minlovchi o'yinlardir.[3]

Zamonaviy metodlar va didaktik yondashuvlar:

1. Loyiha metodi - o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borishiga va ijodiy fikrlashiga yordam beradi.

2. Interfaol ta'lim metodi bahs - munozara, savol - javob va guruhli ishlar orqali o'quvchilar faolligini oshiradi.

Didaktik o'yinlar:

1. "So'zlar xazinasini" - o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. "Gapni davom ettir" - o'quvchilarning mantiqiy va bog'lanishli nutqini rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlarning ayrim turlariga misollar keltirib o'tamiz:

-**Tinch o'yinlar.** Masalan. o'qituvchi bir so'z aytadi, shu so'zning ohirgi harfidan boshlab bolalar so'z tuzadi.

-**Harakatli o'yinlar.** Masalan. o'qituvchi sinf bo'ylab yurib, bir bolani turg'izadi va unga hayvon nomini aytadi. Bolajon shu hayvonga kiruvchi so'zni topib aytishi kerak.

- **Aralash turdagi o'yinlar.** Masalan. "Bilmasvoy xatolari" o'yini. Bunda o'quvchilarning o'n ichida qo'shish va ayirish amallari bo'yicha bilimlari mustahkamlanadi.

Didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirish mumkin. Masalan; "Tez ayt", "Parashutdan sakrash", "Sirli doiracha" kabi o'yinlar o'quvchilarni erkin fikrlashga, puxta bilimga ega bo'lishga undaydi.

O'qituvchi uchun foydali:

1. O'qituvchilar uchun tayyor materiallar bilan onlayn vositalar.

2. Tayyor video darsliklar.

3. Elektron daftarlari.

4. Onlayn testlar.

5. Dars to'plamlari.

6. Masofaviy olimpiada.

7. O'qituvchilar uchun veb - seminarlar.

8. Blits musobaqalari.

Talaffuz bilan imlo bir - biriga chambarchas bog'liqdir. Adabiy til qonuniyati asosida to'g'ri yozish qanchalik muhim bo'lsa, to'g'ri talaffuz qilish ham shunchalik zarur. Ammo so'zning talaffuzi bilan yozilishi doim mos kelavermaydi. Buni tovushlarning so'zdagi o'rnini va o'zaro ta'siri bilan izohlash mumkin.

Tilshunoslikda to'g'ri talaffuz qoidalari to'plami orfoepiya, to'g'ri yozuv qoidalari to'plami esa orfografiya deyiladi.[1] Ona tili ta'limi ijtimoiy - siyosiy, axloqiy - , badiiy - estetik tarbiya berishning qudratli omili hamdir. Aslida bu xislatlar ona tili boyliklarining o'zida mujassamlashgan. Ammo bu imkoniyat o'z - o'zicha ro'yobga chiqmaydi.

Agar o'qituvchi grammatik qonun - qoidalar, tilning kommunikativ vazifasi bilan bir qatorda fikr izhori hamda obyektiv voqelik ifodasining mutanosibligi zarurligini ko'rsatib bera olmasa, til boyliklarini ko'rish va kuzatish sharoitini yaratishni uddalay olmasa tildagi imkoniyatlarning imkoniyat darajasida qolib ketaverishi, ularning mavjudligi o'quvchilar uchun hech narsa bermasligi ham mumkin. Shunga ko'ra ham kitobda ona tilining o'quv predmeti sifatidagi tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi ahamiyatining tushunilishiga imkon beradigan metod va didaktik o'yinlar tizimiga alohida e'tibor berildi.

Didaktik materiallarning saralanishi, tanlanishi, foydalanilishiga, lisoniy tahlilning rang - barang shakl va usullariga alohida e'tibor qaratilganini ham t'kidlash joiz.[2]

Mavjud adabiyotlar va dalillar didaktik o'yinlarning 1-sinf o'quvchilari savodxonligini shakllantirishda sezilarli ijobiy natijalar berishini ko'rsatadi. Kutilayotgan asosiy natijalar quyidagilardir: fonetik tushunchaning yaxshilanishi (harf - tovush uyg'unligi va CVC so'zlarni tanish qobiliyatining oshishi), so'z tanish va o'qish tezligining ortishi (o'yinlar orqali takroriy mashqlar oqibatida o'qishning avtomatlashuvi), o'quvchilarning motivatsiyasi va ishonchining oshishi (qiziqarli va interfaol o'yinlar orqali salbiy hislarning kamayishi, muvaffaqiyatga erishish orqali ijobiy munosabatning shakllanishi), hamda tushkunlikning kamayishi va o'quv jarayonidan zavqlanish (stresssiz muhitning yaratilishi).

Tahlillar didaktik o'yinlar nafaqat kognitiv ko'nikmalarni, balki o'quvchilarning hissiy - irodaviy sohasini ham rivojlantirib, erta yoshdagi savodxonlikni shakllantirish jarayonini samarali va barqaror qiladi. O'zbekiston ta'limida "O'qish ilmi" tamoyillarini mahalliy madaniy va pedagogik xususiyatlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rafiyev A, N.G'ulomova. Ona tili va adabiyot"Sharq nashriyoti Toshkent - 2010 303 b.19 -b.
2. B.To'xliyev. O'zbek tili o'qitish metodikasi. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti . Toshkent-2012. 174 b. 3-4 b.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi.